

Ismoilova Shamsiyabonu Ulug'bek qizi

Annotatsiya- Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'rganishda chet el adabiyotining qanchalik muhim ekanligi bilan tanishasiz.

Abstract - In this article, you will learn how important foreign literature is in learning foreign languages.

Аннотация - Из этой статьи вы узнаете, насколько важна иностранная литература в изучении иностранных языков.

Kalit so'zlar- asar, adabiyot, chet tili, ikkinchi til, so'z boyligi

Key words - work, literature, foreign language, second language, vocabulary

Ключевые слова - произведение, литература, иностранный язык, второй язык, словарный запас.

Rivojlangan davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish innovatsion pedagogikani keltirib chiqardiganligi hech kimga sir emas. Innovatsion - inglizcha "yangilikni kiritish (tarqatish)" ma'nolarini anglatadi. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti Amerika tadqiqotchisi E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoniga katta hissa qo'shgan olimlardan hisoblanadi.

Xorijiy til o'rganish hozirgi jamiyatida juda muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda ya'ni oilada, maktabda, ko'chada, universitetda, odamlar orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rgatiladi. Xalqaro munosabatlar tobora rivojlanayotgan bir paytda tillarni bilish, ayniqsa ko'p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda tahsil oladigan o'quvchi va talabalar odatda uch tilni o'rganadilar. Ushbu tillarning maxsus nomlari bor. Bular quyidagilar: ona tili, ikkinchi til, va chet til. Ona tili bilim boyitishda juda katta xizmat o'taydigan birinchi til hisoblanadi. Ikkinchi til haqida so'z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo'shnilar tili sifatida qaraladi. Chet til - bu xorijiy mamlakat tilidir. Yurtimizda G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o'qitilmoqda. Bu tillar ta'lim muassalarining o'quv rejalaridan o'rin olgan. Uchchala tilni o'qitish jarayoni turlicha kechadi.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, xorijiy tillarni chet el mashhur adabiyotlarini o'qish orqali ham o'rganib katta natijalarga erishish mumkin. Va bularni ingliz va fransuz tillari miqyosida ko'rib chiqamiz.

Ingliz mashhur shoir va yozuvchilari:

- 1.Uilyam Shekspir (1564-1616)
- 2.Jorj Bayron (1788-1824)
- 3.Oskar Uayld (1854-1900)
- 4.Daniel Defo (1660-1731)



5. Rudyard Kipling (1865-1936)
6. Artur Konan Doyle (1859-1936)
7. Agata Kristi (1890-1976)
8. Charlz Dikkens (1812-1870)
9. Jon Tolkien (1892-1973)
10. JK Rouling (1965-...)

Dunyoning hech bir mamlakatida bunchalik mashhur va o'z asarlarida kinoyani zo'r qo'llay oladigan yozuvchilar bo'lmagan. Ingliz klassikasi butun dunyoda eng zo'ri.

Nozik kinoya bilan yozilgan bunday yorqin asarlar hech bir kitobxonning ko'nglini zabt etmay qolmaydi.

Uilyam Shekspir - bu dunyodagi eng yaxshi dramaturglardan biri bo'lgan eng buyuk ingliz shoiri. Uni Angliya xalq shoiri deb atashadi. Hammasi bo'lib 38 ta pyesa, 4 ta she'r, 154 ta sonet yaratgan. Uning barcha asarlari yirik tillarga tarjima qilingan.

Uning "Hamlet" asarini inglizcha o'qish orqali so'z boyligimiz va nutqimizni o'stirishimiz uchun unumli foydalana olishimiz mumkin.

So'z boyligi

Notiqlik

Olohgga ishonib to'g'ri yolda davom etish

Hammaga ham
ishonmaslik

"Hamlet" asari o'zini sevish

Hayot ziddiyatlariga
qarshi tura olish

adolatli bo'lish

Kinoyani so'zlashganda
qo'llay olish

Fransuz mashhur shoir va yozuvchilari:

1. Viktor Gyugo
2. Aleksandr Dyuma
3. Volter
4. Gustav Flober
5. Stendal
6. Albert Kamyu
7. Charl Perro
8. Govard Lavkraft
9. Mishel Uelbek
10. Daniel Pennak

Stendal-Stendal (taxallusi; asl ism-sharifi Anri Mari Beyl) (1783.23.1, Grenobl - 1842.23.3, Parij) — fransuz yozuvchisi. Advokat oilasida tug'ilgan. 1799 yilda harbiy vazirlik

xizmatiga kirgan, Napoleon I armiyasida xizmatda bo'lgan (1806—14). So'ng Italiyaga kelib, J. Bayron bilan tanishgan.

“Qizil va qora” asarini biz qanday tushunamiz?


Qizil-yoshlik

Har doim yechim topa olish

har qanday vaziyatda xushmuomalalik

sevgi

mag'rurlik



sadoqatning

sustligi

bafarqlik

Qora-yoshlik davridagi shijoat

Xulosa qilib aytganda har bir asarning original variantini o'qiganda kitobxon shunday bir olamga tusghadiki, kitobni o'qib tugatdan keyin ham qaniydi yana bir bor o'qisam deb dilida tugib yuradi. Lekin yuqorida aytganimizdek, bunday zavqni qo'lga kiritish uchun alohida kata mehnat talab qilinadi. Ya'ni origina variantdagi asar o'qish uchun uning tilini tushunish kerak, albatta. Va bu uchun, xorijiy til o'rganish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. U. Shekspir. "Hamlet"
2. Stendal "Qizil va qora"
3. Mashhur fransuz yozuvchilari (1-qism)
4. <https://uz.wikipedia.org>